




QISHLOQ,O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

(Dastlabki ma'lumot)


Dastlabki ma'lumotlarga ko'rta 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiylari hajmi 19442,8 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan (104,2 foizni), shu jumladan yalpi dehqonchilik mahsulotlari 10902,4 mlrd.so'mni (107,2 foiz) yalpi chorvachilik mahsulotlari, 7994,9 mlrd.so'mni (100,2 foiz) qishloq xo'jaligida ko'rsatilgan xizmatlar xajmi 121,5 mlrd.so'mni (62,3 foiz), baliqchilik xo'jaliklarida 90,2 mlrd.so'mni (134,0 foiz), ovchilik xo'jaligida 0,4 mlrd.so'mni (102,0 foiz), o'rmonchilik xo'jaliklarida 333,4 mlrd.so'mni (101,8 foizni) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Bag'dod tumani (112,4 foiz), Qo'shtepa (109,9 foiz), Toshloq (109,9 foiz), Beshariq (109,7 foiz), Quvasoy (109,9 foiz), shaharlarida kuzatildi. Qo'qon shaxrida (66,6 foiz), Farg'ona tumani (98,1 foiz) va Uchko'prik (98,5 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiyligi hajmida Oltiariq tumanining ulushi 9,4 foizni tashkil etdi va hududlar boyicha etakchilik qilmoqda, Qo'shtepa va Bag'dod tumanlari mos ravishda 6,9 foiz va 6,8 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rirlarni egalladi. Eng kam ulush Qo'qon, (0,8 foiz), Marg'ilon, (1,3 foiz) So'x (1,6 foiz) tumanlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 104,5 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 107,2 foizni, chorvachilik mahsulotlari 100,2 foizni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlar umumiyo'tligi hajmining 68,5 foizi, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 29,3 foizi, fermer xo'jaliklariga, 2,2 foizi, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida



● Fermer xojaliklari ● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xojaliklari ● Qishloq xojaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'satkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


Dehqonchilik

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 10902,4 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 107,2 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 57,7 foizni tashkil qildi.


Bundan tashqari
676,7 ming tonna (111,1
foiz) don ekinlari ishlab
chiqarildi



97,1 ming tonna (117,7
foiz) oziqbop poliz



298,1 ming tonna
(102,7 foiz) kartoshka
ishlab chiqarildi



333,8 ming tonna (103,0
foiz) meva va rezavorlar




268,5 ming tonna (130,8
foiz) Paxta xom-ashyosi



1090,1 ming tonna (108,1
foiz) sabzavotlar




165,9 ming tonna (105,4
foiz) uzum yig'ib olindi





Asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi




Jami don




Sabzavotlar



Kartoshka




Meva va rezavorlar







Poliz



Paxta




Uzum



Dehqon (shaxsiy yordamchi) dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiylaj hajmining 82,7 foizi, sabzavotlarning 71,1 foizi, meva va rezavorlarning 49,1 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining 90,4 foizi ular hissasiga to'g'ri keladi.


CHorvachilik

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 7994,9 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 100,2 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyl xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 42,3 foizni tashkil etdi.



2019 yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirk vaznda 163,6 ming tonna go'sht (2018 yilning yanvar-sentyabrga nisbatan 2,4 foizga kam) 1036,4 tonna sut (1,4 foizga), tuxum 537,7 mln.dona (7,8 foizga), ko'p jun 1269 tonna (2,8 foizga) kam, pilla xomashyosi esa 2055,8 tonna (24,2 foizga) ishlab chiqarish ko'paygan.

Asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi, %




Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiylajmiidan 91,5 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 95,7 foizi, tuxumning 63,6 foizi, junning 95,4 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2020 yilning 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1005,8 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 360,4 ming boshga, qo'y va echkilar – 858,3 ming boshga, otlar 9,1 ming bosh, parrandalar 8458,9 ming boshga etdi. 2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 2,1 ming boshga, (0,2 foizga), shu jumladan sigirlar – 1,6 ming boshga (0,5 foizga), qo'y va echkilar – 6,8 ming boshga (0,8 foizga), parrandalar – 470,2 ming boshga (5,9 foizga) ko'paydi.


Xo'jalik toifalarining chorva mollari
va parrandalar bosh sonidagi ulushi,%



2020 yining 1 yanvar holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni ho'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,6 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 6,3 foizi fermer xo'jaliklariga, 93,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 10,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 61,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 28,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.



Ovlangan baliq, (tonna xisobida)



Viloyatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish xajmlarini ko'paytirish, xususan ichki va tashqi bozorlarni arzon va sifatli baliq maxsulotlari bilan to'ldirish bo'yicha viloyatda 400 dan ortiq baliqchilik xo'jaliklari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular tomonidan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda 8429,6 tonna miqdorida baliq ovlanib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 131,1 foizni tashkil etdi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz 2019 yilning yanvar-dekabrdagi fermer xo'jaliklarda 6094,0 tonna (48,4 foiz), dexxon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarda 313,6 tonna (2,5 foiz), qishloq xo'jaligini faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar esa 2022,0 tonna (0,2 foiz)ga ko'paydi.

- Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi

- Tel: 0 (373) 241-98-30

- mas'ul shaxs: Komilov Ozodbek